Ona tili

II qism

3



novda
edutainment

D. Baynazarova

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Ona tili
3-sinf
II qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

Ta'limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan.

TASDIQLANGAN PLAGIATGA QARSHI TASDIQLANGAN

novda edutainment

"Novda Edutainment"
Toshkent – 2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FARG'ONA VILOYATI
RISHTON TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI BO'LIMI
33-UMUMIY
O'RTA TA'LIM
MAKTABI
№ 73
18. 11 2023 y.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO'K: 811.512.133(075.3)
KBK 81.2O'zb-922
T 60

D. Baynazarova
Ona tili: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik.
II qism. / D. Baynazarova – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 88 b.

Taqrizchilar:

Sh. Y. Muslimova – Toshkent shahridagi 328-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

M. M. Umarova – Toshkent shahridagi 222-umumiy o'rta ta'lim maktabining birinchi toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

ISBN 978-9943-9704-3-4

© D. Baynazarova,
© "Novda Edutainment", 2023.

Shartli belgilar:



Yodda tuting



Guruh bo‘lib ishlang



Og‘zaki bajaring



Yozma bajaring



Uyga vazifa

Hurmatli o‘quvchi!

Ona tiliga mehr Vatanga muhabbat kabi pok tuyg‘udir.

Bu kitob ko‘zlari chaqnoq, ilmga tashna Sizdek bolajonlarning nutq va lug‘at boyligini o‘stirishga, imloviy savodxonligi, to‘g‘ri yozish, o‘qish hamda husnixat ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Darslikda grammatikа qoidalarini oson o‘zlashtirishingiz, grammatik tahlilni sodda, aniq yo‘llar bilan amalga oshirishingiz va ijodiy fikrlashni o‘rganishingiz uchun turli jadval, rebus, boshqotirma, diktant va test topshiriqlari berilgan.

Omad yor bo‘lsin!




Aa Bb Dd Ee Ff
Gg Hh Ii Jj Kk
Ll Mm Nn Oo Pp
Qq Rr Ss Tt Uu
Vv Xx Yy Zz
G'g' Ww 4 ng
Ona tili
A a

O‘tilganlarni mustahkamlash

1-mashq. **Gapning egasi yoki kesimini toping. Ikkinchi darajali bo‘laklarni qo‘shib, husnixat tarzida ko‘chiring.**

Namuna: Quruvchi baland binolarni quradi.

1. O‘qitadi – (Kim?)
2. Shifokor – (Nima qiladi?)
3. Binolarni quradi – (Kim?)
4. Alla aytadi – (Kim?)
5. Haydovchi – (Nima qiladi?)



2-mashq. **Berilgan gaplarni o‘qing va mos so‘zlar bilan to‘ldiring.**

1. Qushlar bahorda uzoq o‘lkalardan ... .
2. Bolalar musiqa ... ...
3. ... kasallarni davolaydi.
4. Javlon musiqa to‘garagiga ... .
5. Hozir texnologiya darsida ... javon yasashni o‘rganishyapti.
6. ... dala ishlarini boshladilar.

Foydalanish uchun so‘zlar: asbobini chalishni o‘rganishdi, uchib keladi, shifokor, qatnashadi, o‘quvchilar, dehqonlar.

3-mashq. Rasm asosida kuz fasli haqida kichik hikoya tuzing va unga sarlavha toping. Tuzgan hikoyangizdan bosh bo‘laklarni topib, tagiga chizing.



4-mashq. Aralash berilgan so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, gaplar tuzing.

1. Ra’no, parvarish, sevadi, uchun, gullarni, shuning, qiladi, doimo, ularni.
2. Bolalar, borib, kutubxonaga, qiziqarli, o‘qishdi, kitoblar.
3. Ayiqcha, kapalaklar, o‘ynadi, umbaloq oshib, bilan.

5-mashq. “Arazchi svetofor” hikoyasidan olingan parchadan tushirib qoldirilgan bosh bo‘laklarni topib, husnixat tarzida ko‘chiring. Bosh bo‘laklarning tagiga chizing.



Katta bir shahardagi chorrahada uchta ... piyodalar va mashinalarning harakatini tartibga ... .

... juda ko‘p yillar ko‘zlarini ochaverib-yumaverib ... . Aksiga olib, chorrahadagi ... kimo‘zarga ... , svetofor ustunlarini urib ketaveribdi. Jahli chiqqan ... esa svetoforning buyruqlarini pisand qilmay, qizil chiroqda ham ... .

6-mashq. Hikoyani o'qing. Gapning bosh bo'laklaridan ega va kesimni aniqlab, ko'chirib yozing.

Quloqsiz jo'ja

Ona tovuq jo'jalari bilan sayrga chiqibdi va bolalariga uzoqqa ketmaslikni tayinlabdi. Ular mashina qatnov yo'lini kesib o'tishlari kerak edi. Oldinda ona tovuq borar, jo'jalari esa unga ergashardi. Oralarida bir quloqsiz jo'ja ulardan orqada qolib ketdi.

Shu payt ular tomon mashina yaqinlasha boshladi va baland signal chaldi. Signal tovushidan jo'ja qo'rqib ketdi. Yo'l chetida turgan bir bola darhol jo'jani qo'liga oldi-da, u ona tovuqning yoniga borib, jo'jani qo'yib yubordi. Ona tovuq bolaga "Rahmat", deganday "qu-qu"lab, jo'jasini qanotlari orasiga oldi.



Ega va kesimni bildiruvchi so‘zlar yoniga so‘rog‘ini qo‘ying.

Namuna: *Ona tovuq (Nima?) jo‘jalari bilan sayrga chiqdi (Nima qildi?)*

Sizningcha, jo‘ja tushgan holatga insonlar ham duch kelishi mumkinmi? Har doim ham shunday vaziyatlarda yordamga kimdir kela oladimi? Fikringizni qisqa qilib daftaringizga yozing.

7-mashq. Aralash berilgan so‘zlarni o‘qing va ulardan gaplar tuzing.

1. o‘qiydilar, bolalar, maktabda.
2. rasm, Murod, chizadi, chiroyli.
3. tushishni, raqsga, yoqtiradi, Asila.
4. doim, o‘ynaydilar, Malika, birga, Dilshoda.

Bosh bo‘laklarni aniqlang va tagiga chizing.



8-mashq. She’rni ifodali o‘qing. She’r kimning nomidan yozilgan? She’rni matn ko‘rinishida yozing. Tuzgan matningizdagi bosh bo‘laklarni aniqlang va tagiga chizing.



Oyijonim har kuni
Xonamni poklaydilar.
Derazamni ham artib,
Ko‘nglimni chog‘laydilar.

Men ham kichik yordamchi,
Toza, yorug‘ uyimiz.
Bizlarni alqaydilar,
Duogo‘yim – buvimiz.

Masalan: *Oyijonim har kuni xonamni poklaydilar. – Oyijonim har kuni mening xonamni poklaydilar.*

Ega – *oyijonim,* **kesim** – *poklaydilar.*

Oyijonim so'zining tagiga bir chiziq, *poklaydilar* so'zining tagiga ikki chiziq chizing.

Poklaydilar – so'zi o'rniga yana qanday so'zlardan foydalansa bo'ladi?

Shu so'zlarni qo'yib, qayta gap tuzing.



9-mashq. Jadvaldagi so'zlardan gaplar tuzing. Bosh bo'laklarni ajratib, tagiga tegishlicha chizing.

Kim?	Nima qiladi?	Nima?
o'quvchilar	yozdilar	bayon
dizayner	chizadi	chizma
xaridor	sotib oladi	mahsulot
sotuvchi	sotadi	kiyim
novvoy	yopadi	non

Namuna: *O'quvchilar bayon yozdilar.*



10-mashq. Matnni o'qing. Bosh bolaklarni toping. Ularga savol berib, tagiga tegishlicha chizing. Husnixat tarzida ko'chirib yozing.

Yangi qishloq

Qishlog'imiz yangi tashkil etilgan. Unda ekin maydonlari ko'p. Mevali daraxtlari mo'l-ko'l hosil beradi. Qishlog'imizda bu yil chorva mollari uchun ferma qurildi. Qishloq markazida klub, kinoteatr, xiyobon ham bor. Biz chiroyli xiyobonda dam olib, hordiq chiqaramiz. Biz qishlog'imiz bilan faxrlanamiz.



11-mashq. Gaplarni o‘qing. Qavs ichida berilgan so‘zlar qanday harf bilan yoziladi?
Gaplarni ko‘chiring.

1. Cho‘ponning *(olapar)* va *(yo‘lbars)* laqabli itlari bor.
2. Sutni mushugim *(mosh)* ichib ketdi.
3. Otboqar *(olaqashqa)* otini egarladi.
4. Solining *(to‘rtko‘z)* iti *(popukni)* ko‘rib yugurdi.
5. *(jayron)* otdan *(g‘irko‘k)* chopqir.

Gapda eganing qo‘llanilishi

12-mashq. Madina qo‘g‘irchog‘iga ko‘ylak tikmoqchi bo‘ldi. Onasi qiyqim matolar berdi. Opasi unga yordamlashdi. Madina qo‘g‘irchog‘iga yangi ko‘ylak kiydirib qo‘ydi.

1. Kim ko‘ylak tikmoqchi bo‘ldi?
2. Qiyqim matolarni unga kim berdi?
3. Kim tikishga yordamlashdi?

Kim? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.



Qoidani yod oling.

Kesimga bog‘lanib, ish-harakatning kim yoki nima tomonidan bajarilishini bildiradigan bosh bo‘lak ega deyiladi. Ega ***Kim? Nima? Qayer?*** so‘roqlariga javob bo‘ladi.



13-mashq. Quyidagi rasmlarga mos gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizdan bosh bo‘laklarni aniqlang. Egaga so‘roq berib, yozing.



Namuna: *Shifokor* ***(Kim?)*** *bemorlarni davolaydi.*

14-mashq. Savollar o‘rniga mos javoblarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

(Kim?) o‘quvchilarni o‘qitadi.
(Nima?) yerni kuchli qizdirdi.
(Kim?) ariqdan sakrab o‘tdi.
(Nima?) insonni xorlikdan qutqaradi.

Foydalanish uchun so‘zlar: *Zebo, quyosh, o‘qituvchi, hunar.*

15-mashq. Ko‘chiring. Har bir gapning egasini aniqlab, tagiga chizing.

1. Do‘st boshga kulfat tushganda yordam beradi.
2. Mehnat kishini ulug‘laydi.
3. Anvar ingliz tilini o‘rganyapti.
4. Men kelajakda o‘qituvchi bo‘lishni xohlayman.
5. Karim hisob-kitobni yaxshi uddalaydi.

16-mashq. Quyidagi aralash berilgan so‘zlardan gaplar tuzing. Gapda so‘zlarni qanday tartibda qo‘yish to‘g‘ri bo‘ladi?

1. uchinchi, o‘qiydi, Nortoy, sinfda.
2. sinfning, u, a’lochi, o‘quvchisidir.
3. o‘qituvchi, so‘radi, Nortoydan.
4. sen, bo‘lmoqchisan, kim, kelajakda?
5. Nortoy, fermer, aytdi, bo‘lmoqchi ekanini.



Gapda kesimning qo‘llanilishi

17-mashq. “Saxiy ayiqpolvon” rasmli hikoyasini o‘qing. Kesimlarni topib, ularga so‘roq bering. Hikoyadagi kesimlarni ajratib yozing.

 o‘rmondan  ini  ga to‘ldirib,  ga qaytayotgan edi. U biroz charchadi va o‘rmondagi  ga o‘tirib dam olmoqchi bo‘ldi.  dagi  dan maza qilib yedi. Shu payt o‘rmondan  chiqib qoldi.

– , ozgina  yesam maylimi? – dedi. Uning ketidan   ni ko‘tarib chiqdi. – Menga ham ozgina  bering. Bu shovqinni eshitib,  lar orasidan  ko‘targan  ko‘rindi: – Menga ham ozgina berasizlarmi?  hamma jonivorlarni mehmon qildi.  bo‘shadi. Shunda u do‘stlariga qarab: – Tortinmanglar, do‘stlarim, yeyaveringlar, o‘rmonda  juda ham ko‘p, men sizlarga yana terib kelaman, – dedi saxiylik bilan.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FARG‘ONA VILOYATI
RISHTON TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI BO‘LIMI
33-UMUMIY
O‘RTA TA’LIM
MAKTABI
№ 73
18. 11 2023 y.



18-mashq. “Tabiat” so‘ziga sinkveyn tuzing.

1. Nima? Tabiat
2. Qanday? _____
3. Nima qildi? _____
4. Gap. _____
5. Ma’nodosh so‘z toping. _____ ,

_____ , _____ .



19-mashq. Berilgan so‘zlarni o‘qing. Savollar yordamida so‘zlarni bog‘lang.

Otliq	qurildi
Ziyoda	boshlandi
Mevalar	ochildi
Binolar	bordi
Ta’til	ko‘rindi
Maktablar	keldi
Oygul	pishdi

Tuzilgan gaplarni qanday so‘zlar bilan to‘ldirish mumkin?

Namuna: *Yozda mevalar g‘arq pishadi.*

20-mashq. Berilgan so‘zlarni savollar yordamida quyidagi jadvalga moslab joylashtiring.

Keldi, Komila, uxladi, boshlandi, she’r, quladi, dala, tikuvchi, bemor, bulbul, olam, o‘qidi, javob berdi, uyg‘ondi.

Kim?	Nima?	Nima qildi?
...	...	...



Ijodkorlik soati. Loyiha ishi



Tasavvur qiling, siz tadbirkorsiz. Kuzgi meva va sabzavotlardan mahsulot ishlab chiqardingiz. O‘z mahsulotingizni namoyish qiling. Reklama uchun sizga nimalar kerak boladi? Fikringizni yozma bayon qiling.

Reja:

1. Saxiy kuz.
2. Meva va sabzavotlardan ... mahsulot yaratdim.
3. Mahsulot reklamasi.

Topshiriq yakunida gaplardagi bosh bo‘laklarni aniqlab, tagiga chizing.

21-mashq. **Berilgan so‘zlardagi unlilar, undoshlar va bo‘g‘inlar sonini, bo‘g‘in turlarini aniqlab, jadvalga yozing.**

Topshiriq	Hosildorlik	Sabzavot	Xazonrezgilik
Harf	11 ta	8 ta	13 ta
Unlilar	4 ta	3 ta	5 ta
Undoshlar	7 ta	5 ta	8 ta
Bo‘g‘in	4 ta	3 ta	5 ta
Bo‘g‘in turi (ochiq bo‘g‘in, yopiq bo‘g‘in)	Ho-si-dor-lik 1ta ochiq 3ta yopiq bo‘g‘in.	Sab-zo-vot 1ta ochiq 2ta yopiq	Xa-zon-re-zg-lik 2ta ochiq 3ta yopiq bo‘g‘in

22-mashq. **Kuzgi ta’tilda qiziqarli o‘tgan kunlaringiz hamda esingizda qoigan voqealarni 4-5 ta gap bilan ifodalab, matn tuzing. Tuzgan matningizdagi bosh bo‘laklarning tagiga chizing.**



Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari



23-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. Gapdagi bosh bo‘laklarni va ularning mazmunini to‘ldirib kelayotgan so‘zlarni aniqlab, ko‘chiring.

1. Madina 3-sinfda o‘qiydi.
2. Nevarasini yetaklab, Hojiya buvi kelib qoldi.
3. Bir kuni Hakima xola ko‘chasini supurayotgan edi.

Gapdagi bosh bo‘laklarni aniqlang. Gap mazmunini to‘ldirish uchun qaysi so‘zlardan foydalanilgan?



24-mashq. Teskari testni yeching.

1. _____?

A) gap bo‘laklari ikki xil bo‘ladi
B) bosh bo‘laklar: ega va kesim
D) gap bo‘laklari
E) ikkinchi darajali bo‘laklar

2. _____?

A) ***Kim? Nima? Nima qildi? Nima qilyapti?*** – gapdagi bosh bo‘laklarning so‘roqlari
B) ***Kim? Nima qilyapti? Qanday?*** – gapdagi ikkinchi darajali bo‘laklarning so‘roqlari
D) ***Nima? Nima qildi? Qanaqa?*** – eganing so‘roqlari
E) ***Nima qiiyapti? Nima qildi? Nechta?*** – kesimning so‘roqlari


25-mashq. **Rasmlarga qarab, gaplar tuzing. Bosh bo‘laklarni tegishlicha belgilang. Ikkinchi darajali bo‘laklarning tagiga to‘lqinli chiziq chizing.**







Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari



Qoidani yod oling.

Yosh sportchilar musobaqaga puxta tayyorlandilar.

1. Bosh bo‘laklar: ***(Kimlar?)*** *Sportchilar* – ega. ***(Nima qildilar?)*** *Tayyorlandilar* – kesim.

2. Ikkinchi darajali bo‘laklar: Qanday sportchilar? – *yosh sportchilar.* Nimaga tayyorlandilar? – musobaqaga tayyorlandilar. Qanday tayyorlandilar? – puxta tayyorlandilar.

Gapning asosiy mazmunini bosh bo‘laklar orqali anglaymiz. Gapdagi fikr yanada to‘liqroq bo‘lishi uchun boshqa bo‘laklar ham ishtirok etadi.

Ular ikkinchi darajali bo‘laklardir.

Ikkinchi darajali bo‘laklar bosh bo‘laklar bilan bog‘lanib, gapning mazmunini to‘ldiradi.

Ikkinchi darajali bo‘laklar ham gapda ma’lum bir so‘roqqa javob bo‘ladi.

26-mashq. Topishmoqlarning javobini toping. Ularni gaplarga aylantiring. Ikkinchi darajali bo‘laklarning tagiga to‘lqinli chiziq chizing.

Qiladi to‘s-to‘polon,
Yurgan izi – chang-to‘zon.

Olov koptok yumaloq,
U kunda o‘chmas chiroq.


Yarim sharcha,
Ba’zan kulcha.
Ko‘kka soqchi –
Tong otguncha.

27-mashq. Grammatik topishmoqlarning javobini toping.

GRAMMATIK topishmoqlar

Tugal mazmun bildirar,
So‘ngida nuqta bo‘lar.

Gapda bor bosh bo‘laklar,
Biri doim hukmron.
Ega, ergash bo‘laklar,
Unga ergashar hamon.
Ergash va bosh bo‘laklar,
Bular ekan qaysilar?



28-mashq. Matnni o‘qing. Insoniy fazilatlar haqida nimalarni bilasiz?

Inson yaxshi fazilatlar egasi bo‘lsa, uni hamma yaxshi ko‘radi va hurmat qiladi. Avvalo, insoniy fazilat o‘zidan

katta insonlarga salom berishdan boshlanadi. O'zidan katta insonlarni hurmat qiladi, ularni e'zozlaydi. O'zidan kichiklarga esa doimo g'amxo'rlik qiladi...

(F. Umrzoqov)

Ko'chiring. Ikkinchi darajali bo'laklarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.

29-mashq. Maqollarni davom ettiring. Ularni yod oling.

1. Mehribonlik – eng katta ... .
2. Kamtarlik hammaga ... .
3. Qaysarlik – bu zaif aqlning ... .
4. Ilmli – o'zar, ilmsiz – ... .
5. Har qush o'z uyasiga qarab ... .





30-mashq.

Jumboq bola

Qor desang, bobo deydi,
Muz bilan qaymoq yeydi.
Teshikdan kulcha ko‘rar,
Atirni gulday terar.
Toshli baqa bo‘lar der,
Soat qumga to‘lar der.
Chechakni boy deb aytar,
Boltani oy deb aytar,
– O‘zi qandoq bola bu?
– Ajib jumboq bola bu!

Tursunboy Adashboyev

- **She’r sizda qanday taassurot qoldirdi? Siz ham she’r yoza olasizmi, urinib ko‘ring!**
- **Topshiriqni bajaring.**



1. She’r muallifini yozing.
2. She’rda jami necha misra bor?
3. She’rdagi tinish belgilarni yozing.
4. Bosh bo‘laklarni topib, ko‘chiring.
5. She’rdagi qofiyadosh so‘zlarni yozing.

31-mashq. **Shaxs yoki narsa-buyumlarning harakatini ifodalovchi so‘zlarni toping.**

Dastyor

Javohir maktabdan kelganida onasi xamir qorayotgan edi. Javohir tezda kiyimini almashtirdi va tomdan o‘tin olib tushdi. Xamir oshgach, onasi non yasadi. Javohir o‘tinlarni tandirga

qalab, o‘t yoqdi. Tandir qizidi. Onasi non yopdi. Oila a’zolari birgalikda issiq non bilan tushlik qilishdi.

• **Matnni davom ettirib yozing. Ikkinchi darajali bo‘laklarning tagiga chizing.**



32-mashq. Matnni o‘qing. Nima qiladi? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar tagiga chizing.

Uskunalar turli xil bo‘lib, ular kiyim-kechak uchun mato to‘qiydi, poyabzal tikadi, kitob chop etadi. Shu bilan bir qatorda, bizga zarur bo‘lgan yana ko‘pgina mahsulotlarni tayyorlaydi. Paxta, bug‘doy, guruch hosilini, mo‘l-ko‘l oziq-ovqat mahsulotlarini ham mashinalar yordamida yetishtirish mumkin.

33-mashq. **O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga savol bering. Ular gapning qaysi bo‘lagi bo‘lib kelayotganini aniqlang.**



Ustozlarga qo‘yib ixlos,
Orzularni qilib asos.
Peshonadan to‘kamiz dur,
Ko‘zimizdan to‘kamiz nur.
O‘rganamiz, o‘rgatamiz,
Ishda **o‘zni** ko‘rsatamiz.

• **Ushbu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing. Gaplardagi bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning tagiga tegishlicha chizing.**

34-mashq. O'qing.

Bugun yomg'ir yog'di. Atrof changdan tozalandi. Daraxtlar yanada ko'rkamlashdi. Osmonda chiroyli kamalak paydo bo'ldi. Rang-barang gullarga qo'nayotgan kapalaklar bolalarni xursand qildi.



Gaplarni ko'chiring. Savollar yordamida gap bo'laklarini namunadagidek tahlil qiling.

Namuna: *Bugun yomg'ir yog'di.*
Nima? – *yomg'ir* **(ega).**
Yomg'ir **nima qildi? –** *yog'di* **(kesim).**
Qachon *yog'di***? –** *bugun* **(ikkinchi darajali bo'lak).**

Gapning ikkinchi darajali bo‘laklarini so‘roqlar yordamida aniqlash

35-mashq. Gaplarni mazmuniga mos so‘zlar bilan to‘ldirib, yozing. Qo‘llanilgan so‘zlarga savol bering. Ular gapning qaysi bo‘lagi vazifasida kelyapti?

... oyisi, dadasi bilan xolasinikiga mehmonga bordi. Xolasi mehmonlarni pista-bodom, shirinliklar, kulcha nonlar bilan ... . Odiljon ... sho‘xlik qilmadi. Shirinliklarga hadeb qo‘l ... . Kelgan boshqa mehmonlar Odiljonni “... bola ekan”, deyishdi. Odiljon “Odobli bola – elda aziz” ekanligini bilib oldi.

Foydalanish uchun so‘zlar: *mehmonda, siyladi, Odiljon, odobli, cho‘zavermadi.*

- **Gaplarda ikkinchi darajali bo‘laklar nima uchun qo‘llangan?**

36-mashq. Matnni o‘qing. Bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarni aniqlang.



Maktabimiz o‘quvchilari xayrli ish boshladilar. Ular hozirdanoq noyob gul urug‘larini yig‘yaptilar. Fevral oyida urug‘ni tuproqli qutilarda undiradilar. Bahor kelishi bilan ko‘chatlarni maktab gulzoriga o‘tqazadilar.

• **Ko‘chiring. Ega bilan kesimning tagiga tegishlicha chizing. Ikkinchi darajali bo‘laklarning tagiga to‘lqinli chiziq chizing.**

37-mashq. Ko‘chiring. Gaplarning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarini toping.

1. Yaxshidan bog‘ qoladi.
2. Sa’dulla ukasi bilan gulzorga kirdi.
3. Ishchilar uskunalarni zavodda yasaydilar.
4. Uskunalar odamlar mehnatini yengillashtiradi.
5. Bolalar donxo‘rak yasadilar.
6. Qushlar undan oziqlanadi.
7. Yovvoyi kaptarlar bog‘da yashaydi.
8. Odamlar ularga don beradilar.



Ijodkorlik soati. Loyiha ishi

O‘qing. Matnga sarlavha qo‘ying. Ikkinchi va uchinchi gapdagi bosh bo‘laklarni aniqlab, ularni yonma-yon ko‘chiring. Og‘zaki tahlil qiling. Fikringizni aytib, shu reja asosida bayon yozing.

Oilamiz o‘n besh kishidan iborat. Biz isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilamiz. Buvim suvni bekorga isrof qilmaslik, tejash kerakligini doimo aytadilar. Men bunga amal qilaman. Jo‘mrakdan suv bekorga oqib turgan bo‘lsa, darhol berkitib qo‘yaman. Biz elektr energiyasi va suvni isrof qilmaymiz. Chiroqlarni, televizorni o‘z vaqtida o‘chiramiz. Biz tejamkor oilamiz!


“Tabiat ne’matlari kelajak avlodlarga ham xizmat qilishi kerak”, – deydi ustozimiz. Buni biz – sinfdoshlar, bir-birimizga eslatib turamiz.

Keling, tejamkor bo‘lib, tabiiy boyliklarni avaylashni, tabiatni asrashni o‘rganaylik!

Reja:

1. Tejamkorlik deganda nimani tushunasiz?
2. Elektr energiyasi, tabiiy gaz va suv tugab qolishi mumkinmi?
3. Siz ham tejamkorlikka amal qilasizmi?

38-mashq. Matnni o‘qing. Sarlavha toping.



• **Matndan bosh va ikkinchi darajaii bo‘laklarni aniqlang. Otlar haqida yana qanday ma’lumotlarni bilasiz?**

Chorva hayvonlari orasida otlarning yuragi eng katta hisoblanadi. Otlarning sezgi a’zolari juda kuchli bo‘ladi. Ular odamlarning ovozidan kayfiyatini aniqlab olish xususiyatiga ega. Otlarning ko‘zlari qorong‘ida ham yaxshi ko‘ra oladi. Otlar qarshisidagi chuqurlikni juda tez ilg‘aydi va bu haqida egasiga belgi beradi.

39-mashq. Chizmaga mos gaplar tuzing va ularni yozing.

Gapda so‘zlarning bog‘lanishi

40-mashq. Matnni o‘qing.

Tulki hidni tez sezadi. U qishda sichqon ovlaydi. Tulki bahorda yoki yozning boshida bolalaydi. Bolalari to‘rt oylik bo‘lganda mustaqil bo‘ladi.

• **Gaplarni ko‘chiring. Undagi bosh bo‘laklarning tagiga chizing. Ega va kesimga savol bering. Ushbu bo‘laklarga bog‘lanib kelayotgan so‘zlarni namunadagidek yozing. Yozganlaringizni tekshiring.**

Namuna: Tulki hidni tez sezadi.
Nima? – tulki.
Nimani sezadi? – hidni sezadi.
Qanday sezadi? – tez sezadi.

Qoidani yod oling.

Gapda so‘zlar mazmunan o‘zaro bog‘lanadi.

Gapda so‘zlarning bog‘lanishi va vazifasi savollar yordamida aniqlanadi.



41-mashq. O‘qing. So‘zlarning o‘zaro bog‘lanishini savollar yordamida aniqlang. Matnni ko‘chiring.

Shanba kuni biz hayvonot bog‘iga bordik. U yerda turli o‘lkalardan keltirilgan jonivorlar qafasda yashar ekan.

Shuhrat va men timsohni, jirafani, filni rosa kuzatdik. Maymunlarni uzoq vaqt tomosha qildik. Ayrim bolalarga sherning harakati yoqibdi. Shu kuni biz jonivorlar haqida ko‘p narsalarni bilib oldik.



42-mashq. Gaplarning mazmuniga mos so‘zlarni qo‘yib, to‘ldiring.

1. Men gullarni … oldim.
2. Do‘stimning Laylo degan … bor.
3. Aqlli bola … yaxshi ko‘radi.
4. Uzoqdan yoqimli … eshitildi.

5. Onam … tikib berdi.
6. Shahrimizda katta … bor.
7. Toza … tanga juda foydali.
8. Qushlar … mamlakatga uchib ketishdi.

Foydalanish uchun so‘zlar: *terib, kitobni, singlisi, kuy, do‘ppi, binolar, havo, issiq.*



43-mashq. Chizmaga mos gap tanlang.



A. Jamshidning akasi maktabda ishlaydi.
B. Gulzorda chiroyli gullar ochildi.
D. Tog‘ bag‘rida shamol vizilladi.
E. O‘qituvchi bolalarga darsni tushuntirdi.

44-mashq. *Qanday?* **so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘z ishtirok etgan o‘zbek xalq maqollaridan namunalar keltiring.**

• Aytgan maqollaringizdan uchtasini ko‘chirib yozing.
Namuna: Odobli bola – elga manzur.



45-mashq. **Savollar o‘rniga javob so‘zlarni qo‘yib, gaplarni yozing.**

(Qanday?) shamol yaproqlarni tebratdi. Men kecha ***(Qayerga?)*** bordim. Bolalar uyning derazasidan ***(Nimani?)*** kuzatishardi. Mehnat darsida bolalar ***(Nimadan?)*** uychalar yasadilar.

Foydalanish uchun so‘zlar: *qog‘ozdan, kuchli, kutubxonaga, yomg‘irni.*



46-mashq. Matnda nechta gap bor? Tinish belgilarini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Savollar yordamida gaplardagi so‘zlarning o‘zaro bog‘langanini aniqlang.

Havo aynib, yomg‘ir yog‘a boshladi uyga chopdim qiziq, hozir qishloqdagi o‘rtoqlarim nima qilishayotgan ekan u yerda ham yomg‘ir yog‘ayotganmikin bunaqa paytda rosa o‘ynardikda.

- **Juftliklarda muhokama qilib, jadvalni to‘ldiring.**

T/r	Ma’lumot	Mumkin	Mumkin emas
1.	***Salimjon va Gulnora dars tayyorladilar.*** Salimjon va Gulnora ismlari o‘rtasiga vergul qo‘ysa ham bo‘ladi.		X
2.	***O‘zbekiston, jonajon o‘lkam!*** Undov belgisi qo‘yiladi.	V	
3.	***U yerda ham yomg‘ir yog‘ayotganmikin?*** So‘roq belgisi qo‘yiladi.	V	
4.	Buyruq gaplarning oxirida har doim nuqta bo‘ladi.	V	

47-mashq. Quyidagi jadvaldan rost va yolg‘on ma’lumotni toping. Yolg‘on ma’lumotni rost ma’lumotga aylantirib ko‘chiring.

Ma’lumot	Rost	Yolg‘on
1. Bosh bo‘laklarga ikkinchi darajali bo‘laklar kiradi.		✗
2. Gaplar kichik harf bilan boshlanadi.		✗
3. Kuchli his-hayajon, quvonch, ajablanish bilan aytilgan gaplar his-hayajon gaplar deyiladi.	✓	
4. ***Bilimli bola charchashni bilmaydi.*** Berilgan gapda ***bola, bilmaydi*** so‘zlari bosh bo‘laklar hisoblanadi.	✓	


48-mashq. Berilgan so‘zlardan gap tuzing va yozing.



49-mashq. Berilgan so‘zlardan gaplar tuzing va yozing. Asosdosh so‘zlardan foydalaning.

1. Kambag‘al, zamonda, yashagan, qadim, ekan, yigit.
2. Ilon, birida, topib, kunlarning, u, olibdi.
3. Bilan, ilon, kelibdi, ko‘rsatish, xayoliga, tomosha.
4. Tomosha, yetib, podshohga, boribdi, gaplar, haqidagi.

- **Ertakni davom ettiring.**



So‘z tarkibi. Asos va asosdosh so‘zlar

50-mashq. So‘zlarni o‘qing. Juftlab berilgan so‘zlar nimasi bilan bir-biriga o‘xshaydi? So‘zlar uchun umumiy bo‘lgan qismni namunadagidek belgilang.

Meva – mevazor, kuch – kuchli, xatar – xatarsiz, o‘quv – o‘quvchi, millat – millatdosh, moy – moyli, xato – xatosiz.

Namuna: *meva – mevazor.*

Qoidani yod oling.

Ma’no va shakl jihatdan umumiy qismga ega bo‘lgan so‘zlar asosdosh so‘zlar deyiladi:
gul, gulchi, guldon, gulsiz.

Asosdosh so‘zlar uchun umumiy bo‘lgan qism asos deb nomlanadi:
zina, zinali, zinasiz.



51-mashq. Rasmlardan foydalanib, so‘zlar ro‘yxatini tuzing. Har bir so‘zga savol bering. Savollarda farq bormi? *Kim? Nima?* so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarga e’tibor bering.

- **Nima uchun har bir so‘zda ularning so‘roqlari almashayotganini ayting.**






Bog‘ – Nima?
Temir – Nima?
Sinf – Nima?

Bog‘bon – Kim?
Temirchi – Kim?
Sinfdoshlar – Kimlar?

- **Siz ham shunday so‘zlarga misollar keltiring.**

52-mashq. She’rni o‘qing. Uni yoddan yozishga tayyorlaning. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga asosdosh so‘zlar yozing.

Tongda qo‘nib cho‘qqiga **quyosh**,
Ulasharkan barchaga sog‘liq.
Olar ekan quyoshdan **sovg‘a**,
Kim yetsa tez unga nechog‘liq.



53-mashq. Matnni o‘qing va ko‘chiring. Asosdosh so‘zlardagi umumiy qism bo‘lgan asosni tegishlicha belgilang.

Bog‘bon o‘quvchilarni bog‘ga taklif qildi. U chiroyli gullardan o‘quvchilarga guldasta tayyorlab berdi. Bolalar guldastalarni olib, bog‘bonga rahmat aytishdi. Ular gullarni to‘g‘ri parvarish qilish haqida bog‘bondan so‘rab oldilar.



54-mashq. Har qaysi qatordan asosdosh so‘zlarni toping va ularni yozing. Asosdosh bo‘lmagan so‘zlarni ajrating.

1. Zira, zirali, zirasiz.
2. O‘rtoq, o‘rim, o‘roqchi, o‘rmala.
3. Kuchsiz, kuchli, kuchuk.
4. Zina, zinali, zinasiz, zindon.
5. Zot, zotli, zotsiz, zotdor.



55-mashq. O‘qing. Matnga sarlavha qo‘ying. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga savol bering.

Uchuvchi samolyot yoki vertolyotning **boshqaruvchisi** hisoblanadi. U ham jismonan, ham ma’nan **kuchli** bo‘lishi kerak. Yana favqulodda vaziyatlarga doim tayyor bo‘lishi, kutilmagan sharoitlarda tezkor qaror qabul qilishi shart. Shu bilan birga, **yo‘lovchilarning** xavfsizligini ta’minlash ham uning vazifasiga kiradi. **Uchuvchidan** talab qilinadigan asosiy jihatlar: balandlikdan qo‘rqmaslik, **o‘z kuchiga** ishonish, aql va tezkorlikdir. **Uchuvchi** nafaqat texnikani, balki chet tillarini ham bilishi muhim sanaladi. Chunki u ko‘p mamlakatlarga boradi. O‘sha yerda **kasbdoshlari** bilan axborot almashish, ayrim vaqtlari ulardan yordam so‘rash uchun til bilishi kerak.

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni yozing va imlosini yodda saqlang.



56-mashq. *Tuz, zar, xato, bilim* so‘zlarining har biriga asosdosh so‘z tanlang va yozing. Asosni namunadagidek belgilang. Shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: *tuz, tuzla, tuzli, tuzsiz.*



57-mashq. Berilgan so‘zlarni o‘qing. Ushbu so‘zlarni bir-biriga bog‘lagan holda gaplar tuzing. Bitta gapda hamma asosdosh so‘zlar ishtirok etsin.

Sut, sutchi, sutli, sutsiz

Zar, zargar, zarli, zarsiz

Pul, pulli, pulsiz



58-mashq. **“Mening uyim qayerda?” jadvalini to‘ldiring. Berilgan so‘zlarni mazmunan mos katakka joylang. Shu so‘zlardan foydalanib gap tuzing.**

Kim? Nima?	Qanday? Qanaqa?	Nima qiladi? Nima qildi?
Fikr	Baxtli	Tayyorladi

Foydalanish uchun so‘zlar: *traktor, qadr, baxtsiz, mazali, tishladi, qadrlaydi, fikrlaydi, suvsiz, suvli, mazasiz, sinfdosh.*



59-mashq. **So‘zlarning tushirib qoldirilgan qismlarini qo‘yib, matnni ko‘chiring. So‘z asoslarini tegishlicha beigilang.**

Biz o‘qiyotgan maktab katta. Maktabimizda …li bog‘ yaratilgan. …lar bog‘ ishlarida …ga yordamlashadilar. Bog‘da, …li daraxtlar ko‘p. Erta bahorda barcha daraxtlar qiyg‘os … .

Foydalanish uchun so‘zlar: *meva, gullaydi, meva, o‘quvchi, bog‘bon.*

Jadvalli topshiriqlar



60-mashq. Quyidagi jadvaldan rost va yolg‘on ma’lumotni toping. Yolg‘on ma’lumotni rost ma’lumotga aylantirib ko‘chiring.

Ma’lumot	Rost	Yolg‘on
1. Bosh bo‘laklarga ega va kesim kiradi.	✓	
2. Hamma gaplarning oxiriga nuqta (.) qo‘yiladi.		✗
3. Asosdosh so‘zlar uchun umumiy qism bosh bolak deyiladi.	✓	
4. ***Bilimli, bilimsiz*** so‘zining asosi – ***bil.***		✗



61-mashq. O‘qing. Har bir ustundan asosdosh bo‘lmagan so‘zlarni toping. Asoslari umumiy bo‘lgan so‘zlarni ko‘chiring. Ular qanday so‘roqqa javob bo‘ladi? Nimani anglatadi?

Ilmsiz	Ovchi	Yog‘siz	Bilimdon	Yozuv
Ilmli	Ovla	Yog‘och	Bilimli	Yozma
Ilmiy	Ovsiz	Yog‘la	Bilimsiz	Yozuvchi
	Ovchilik	Yog‘li	Billur	Yozishma
				Yovuz

62-mashq.

T/r	Qoidalar	To‘g‘ri	Notog‘ri
1	Faqat ma’no jihatdan umumiy qismga ega bo‘lgan so‘zlar asosdosh so‘zlar deyiladi.		
2	Asosdosh so‘zlar uchun umumiy qism asos deb nomlanadi.		
3	Ko‘p, ko‘prik, ko‘pchilik so‘zlari orasida ko‘prik so‘zi asosdosh so‘z emas.		
4	Shakl va ma’no jihatdan umumiy qismga ega bo‘lgan so‘zlar asosdosh so‘zlar deyiladi.		
5	Chiziq, chiziqli, chizg‘ich so‘zlarining asosi chiziq so‘zi.		

63-mashq. So‘zlar yozib, bo‘sh kataklarni to‘ldiring. Yozgan so‘zlaringizning ma’nosini tushuntirib bering. So‘zlarni tahlil qiling.

Namuna: *Gulchi – Kim? so‘rogiga javob beradi. Gul – asos, chi – so‘z yasovchi qo‘shimcha.*




G	U	L				
G	U	L				
G	U	L				
G	U	L				
G	U	L				



64-mashq. Tushirib qoldirilgan asoslarni toping va yozing. Asosdosh so‘zlarning asoslari bir xil yozilishini esda tuting.

Gulladi, ...dor, ...siz; o‘tloq, ...siz; ser...; kuchli, ...siz, suvli, ...siz, ser... , ishla, ...chi, ...chan.



So‘z yasovchi qo‘shimchalar


65-mashq. Rasmlarga qarang. *Kim?* so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar qaysi qo‘shimchalarni olgan?





baliq – baliqchi





g‘alla – g‘allakor





sinf – sinfdosh

66-mashq. So‘zlarning umumiy qismlarini toping. Ular nima uchun ma’no jihatdan farqlanyapti?

temir – temirchi	g‘alla – g‘allakor
ish – ishla	sinf – sinfdosh
meva – mevali	nur – nursiz



Qoidani yod oling.

-chi, -la, -kor, -dosh, -li, -siz kabi qo‘shimchalar so‘z yasovchi qo‘shimchalardir. ***Temirchi – temir*** (asos), -chi (so‘z yasovchi qo‘shimcha); ***ishla – ish*** (asos), -la (so‘z yasovchi qo‘shimcha); ***mevali – meva*** (asos), -li (so‘z yasovchi qo‘shimcha); ***g‘allakor – g‘alla*** (asos), -kor (so‘z yasovchi qo‘shimcha); ***sinfdosh – sinf*** (asos), -dosh (so‘z yasovchi qo‘shimcha); ***nursiz – nur*** (asos), -siz (so‘z yasovchi qo‘shimcha).

Asos va yangi ma’noli so‘z hosil qiladigan so‘z yasovchi qo‘shimchalar quyidagi belgi bilan ko‘rsatiladi: (⌒ – asos, ^ – so‘z yasovchi qo‘shimcha).



67-mashq. Topishmoqlarning javobini toping. So‘z yasovchi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, ko‘chiring.

1 Qanot... uchar,
Yelkan... suzar.

2 Qat-qat to‘n... ,
Qarich bo‘y... .

3 Aql... temir olam kezar.

4

O‘zi shirin tuk...gina,
Mazasi ham tot...gina.

68-mashq. **Nuqtalar o‘rniga *-chi, -la, -siz, -li* so‘z yasovchi qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Asos va so‘z yasovchi qo‘shimchalarni tegishlicha belgilang.**

1. Bobomlar meni es...-hush... bo‘tam derlar.
2. Reja... ish – qolip... g‘isht.
3. Kuch... shamol, daraxtlarni qattiq silkitdi.
4. To‘rtdir uning oyog‘i, temir mix... tuyog‘i.
   Manzilga yetishtirar toshdan qattiq tuyog‘i.
5. Tilga ixtiyor... – elga e’tiborsiz.
6. Bu yilgi hosilimiz daromad... bo‘ldi.



69-mashq. Gaplarni ko‘chiring. So‘zlarning asos va qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang. Jadvalga asos va so‘z yasovchi qo‘shimchalarni ajratib yozing.

1. Traktorchi daladan charchab keldi.
2. Bilimli inson hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi.
3. Gulnoza oyisiga mazali ovqat pishirib berdi.
4. Zargar o‘z ishini puxtalik bilan yakuniga yetkazdi.
5. Anvarning fikri sinfdoshi Sobirniki bilan bir joydan chiqib, fikrdoshga aylandi.

Asos	So‘z yasovchi qo‘shimcha






70-mashq. **O‘qing. Nuqtalar o‘rniga birinchi gapda berilganidek mos so‘zlarni qo‘ying. Qo‘ygan so‘zlaringizdagi asos va qo‘shimchalarni aniqlang.**

Namuna – Temir-tersaklardan kerakli buyumlar yasaydigan kishi – temir+chi.

Shifo ulashadigan tibbiyot xodimi – ...

G‘alla yetishtiruvchi kishi – ...

Bir sinfda o‘qiydigan o‘quvchilar – ...

Mashina boshqaruvchi – ...

Raketa yoki samolyotlarni boshqaruvchi – ...

Futbol o‘yinchisi – ...

Bog‘chalarda bolalarga qaraydigan xodima – ...









71-mashq. Har bir so‘zning asosi va so‘z yasovchi qo‘shimchasini toping. Avval *-chi,* so‘ngra *-li,* keyin *-la* va oxirida *-siz* qo‘shimchasi bilan yasalgan so‘zlarni guruhlab yozing. Shu so‘zlar ishtirokida 3-4 ta gap tuzing.

Dutorchi, bo‘yoqli, boshla, ilmsiz, do‘mbirachi, ishla, javobsiz, sifatli, xabarchi, so‘zsiz, tantanali, oqla, navbatchi, bilimsiz, moyla, zinali, xatosiz, jangchi, mixla, a’lochi, sabrli.

72-mashq. Hikmatli so‘zlarni o‘qing. Mazmunini tushuntiring. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni ko‘chiring. So‘z yasovchi qo‘shimchalarni aniqlab, belgilang.



Iste’dodli va mehnatga **muhabbatli** odam uchun hech qanday to‘siq yo‘q.

Sizni **bilimli** bo‘lishga undaydigan hech bir narsaga **e’tiborsiz** bo‘lmang.



Insoniyat olijanob **g‘oyalarsiz** yashay olmaydi.



Bekorchilik nodonlikka olib keladi, ayni vaqtda kasallikning paydo bo‘lishiga ham **sababchi** bo‘ladi.





Faqat **kuchli** odamgina o‘z aybiga iqror bo‘ladi.

• ***Bekorchi*** **va** ***bilimli*** **so‘zlariga ma’nodosh so‘zlar toping.**






73-mashq. Matnni o‘qing va sarlavha toping. Ajratib ko‘rsatilgan gaplarni ko‘chirib yozing. Gap tarkibidagi so‘zlarning asos va qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang.

Inson umri davomida do‘st deb atalmish **sirdosh**, hamdard kishiga ehtiyoj sezadi. Baliq **suvsiz**, qush **qanotsiz** yashay olmaganidek, inson ham **do‘stsiz** yashay olmaydi. U bizning ustunimiz, ko‘rinmas oynamizdir. Ammo do‘stlar shunday bo‘ladiki, ular boshida ko‘p bo‘lib, boshingga og‘ir kun kelganida ulardan faqat haqqoniylari qoladi. Ha, chin do‘st tanlash juda qiyin. Chunki u umri davomida senga **yelkadosh**, **suyanchiq** bo‘lishi kerak. Agar taqdir odamga saxovat ko‘rsatib, dunyodagi eng buyuk baxtni tortiq qilmoqchi bo‘lsa, uni **sadoqatli** do‘stlar bilan siylar ekan.

74-mashq. **Eng yaqin do‘stingiz haqida kamida 4-5 ta gapdan iborat matn tuzing va sarlavha qo‘ying. Tuzgan matningizdagi asos va asosdosh so‘zlarni tegishlicha belgilang.**



75-mashq. So‘zlarni o‘qing. So‘z yasovchi qo‘shimchasi bir xil bo‘lgan so‘zlarni guruhlarga ajratib yozing.

Namuna: **siz** – *ixtiyorsiz, mashaqqatsiz …*

Ixtiyorsiz, sirdosh, suvchi, maktabdosh, do‘stsiz, kursdosh, mashaqqatsiz, bokschi, fikrsiz, bekorchi, saxovatli, fikrla, aqlli, qo‘lla, sadoqatli, xizmatchi, irodali, idrokli, ishonchli.

- **Eng ko‘p so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shish mumkin bo‘lgan so‘zlarga misollar yozing.**

Namuna:





76-mashq. Og‘zaki topshiriq.

- O‘g‘il bolalar qizlarga asos so‘z aytadilar.
- Qizlar esa o‘g‘il bolalarga asosdosh so‘z aytadilar.

Savollarga yozma javob bering.

1. Asosdosh so‘zlar qanday bo‘ladi?
2. Qaysi qo‘shimchalar gapda so‘zlarni bir-biriga bog‘laydi?
3. So‘z yasovchi qo‘shimchalarga qanday qo‘shimchalar kiradi?



77-mashq.

“Tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Mazmuni
chi, -la, -kor, -dosh, -li, -siz	(⋀) belgi bilan ko‘rsatiladi. (⌒ – asos, ⋀ yasovchi)
Shakl va ma’no jihatdan umumiy qismga ega bo‘lgan so‘zlar.	asosdosh so‘zlar deyiladi
Yangi ma’noli so‘z hosil qiladigan so‘z yasovchi qo‘shimchalar	so‘z yasovchi qo‘shimchalardir
Chi, kor qo‘shimchasi	Kim? so‘rogiga javob bo‘ladigan so‘zlarga qo‘shiladi.
Ko‘p, ko‘prik, ko‘pchilik so‘zlari	orasida ko‘prik so‘zi asosdosh so‘z emas

78-mashq. **So‘z yasovchi qo‘shimchaiarni olgan so‘zlarni topib, ko‘chiring.**

bir	ishla	aqlli	ilmli	tikdi
oldi	ovchi	besh	olti	aql
uch	gulla	nurli	tuzla	qurdi
kel	o‘n	ildi	sozla	uzdi
yur	ikki	urdi	ovla	terdi
ber	ovsiz	oqla	ilmsiz	ichdi



Ijodkorlik soati. Loyiha ishi

79-mashq. Namunadan foydalanib, do'stingizga yoki tanishingizga tabriknoma yozing.



Namuna:

Assalomu alaykum, aziz ustozim! Sizni tug'ilgan kuningiz bilan tabriklayman! Sizga uzoq umr sihat-salomatlik tilayman. Sharafli kasbingizda omad yor bo'lsin. Bizga ta'lim-tarbiya berishda aslo charchamang, deb o'quvchingiz _____ .



80-mashq. Jadvalni to‘ldiring. Yana qanday so‘zlar parashyutdagi so‘zlar kabi asos va asosdosh so‘zlar bo‘lishi mumkin? Davom ettiring.

GUL





81-mashq. Berilgan jadvalni tegishli qo‘shimchani olgan so‘zlar bilan to‘ldiring va ular ishtirokida 4 ta gap tuzing.

-chi	-kor	-li	-dosh	-siz

So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalar

82-mashq. **Nuqtalar o‘rniga mazmunga mos qo‘shimchalarni qo‘yib, gaplarni o‘qing va ko‘chiring.**

Jahongir uchinchi sinf... o‘qiydi. U matematika fani... juda ham qiziqadi. Dars... so‘ng to‘garaklar... boradi. U yer... murakkab masala va misollar... hech qiynalmay yechadi. Maktab... barcha fanlar... a’lo baholar oladi.

Siz nima deb o‘ylaysiz, yaxshi o‘qish uchun nimalar qilish kerak?

Faqat matematikani bilishning o‘zi kelajagingiz uchun yetarlimi?

Qoidani yod oling.

-ning, -ni, -ga, -da, -dan qo‘shimchalari gapda so‘zlarni bir-biriga bog‘laydi. Masalan: Malika dizaynerlik to‘garagiga boradi. Umid sport musobaqasida g‘olib bo‘ldi.



83-mashq. **Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan birga yozing.**

Qadim zamonda bir g‘or bo‘lgan ekan. G‘orda **dunyoning** turli bilimlari yashiringan ekan. **G‘orning** og‘zi bir **yilda** bir marta ochilib, yana bekilarkan. **Ilmga** tashna odamlar g‘or ochilishi bilan u **yerga** kirib, ulgurganlaricha bilim olib

chiqishar ekan. Buni eshitgan Ibn Sino **g‘orga** kelibdi. G‘or ochilishi bilan **ichkariga** kiribdi. U bilan kirganlar g‘or yopilmay chiqib ketishibdi. Ibn Sino esa **g‘orda** bir yil qolibdi va jamiki **bilimlarni** egallabdi.



84-mashq. Berilgan hikoyani “O‘qish savodxonligi” darsligidan toping. Sarlavhasini o‘zgartiring. Nuqtalar o‘rniga gap mazmuniga mos qo‘shimchalarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Kechki ovqat mahali edi.

– Bolalar, qo‘lingiz.. yuving, dadangiz keldi, – dedi ona. Ota uy... kirarkan, bolalari... peshonasi... o‘pib qo‘ydi.

– Ko‘cha biram sovuq, shamol ko‘z ochirgani qo‘ymayapti, – dedi paltosi... yechayotib. – Tepa qavatdagi qo‘shni... mashinasi yo‘l... buzilib qolibdi. Rosa urindik, yurgizolmadik. Oxiri shatak... olib, tortib keldim. Katta yaxshilik qildingiz, deb qayta-qayta duo qildi. O‘zim ham yengil tortdim.

Ular maza qilib ovqatlanishdi. Jamshid otasi... juda havas qildi.



85-mashq. O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning bir-biri bilan bog‘lanishini so‘roqlar yordamida aniqlang va namunadagidek yozing.

Sokin tun edi. Uyqim kelmay **o‘rnimdan** turdim. **Derazadan osmonga** qaradim-u, to‘lin **oyni** ko‘rib, ko‘nglim yorishib ketdi. U shunchalar chiroyli, shunchalar porloq ediki,

go‘yo **yuzidan** yog‘ilgan sim-sim nurlari ila atrofni yoritib, borliqni allalayotgandek. **Oyga** uzoq tikilib qoldim va bir voqea **yodimga** tushdi.

Namuna: *Qayerdan turdim? – O‘rnimdan.*



86-mashq. So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, maqollarni ko‘chiring.

Ter to‘kib mehnat qilsang, yer... zar unadi.
Qarilik... donolik bezar, yoshlik... – kamtarlik.
So‘z aytganda o‘ylab ayt, oqibati... bilib ayt.
Suv... bersang elga, yasharasan ming yil... .
O‘zga yurt... gulidan, o‘z yurting... cho‘li yaxshi.
Yaxshi oshi... yer, yomon boshi... .

So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalar mavzusini mustahkamlash

87-mashq. Topishmoqlarning javobini toping.

Yorug‘ kunni boshlaydi,
Undan borliq yashnaydi.

Tog‘da, bog‘da yashaydi,
Qishda, yozda yashnaydi.

Ona-bola yemas, ichmas,
Dasturxondan nari jilmas.

Ko‘zga ko‘rinmas,
Qo‘lga tutilmas,
Burunga kirmay qolmas.

• **Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan ko‘chirib, tahlil qiling.**

So‘z	Asos	So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimcha
kunda	kun	da
yozda	yoz	da



88-mashq. Rasmlarni so‘zlar bilan ifodalang. Ularga bog‘lovchi qo‘shimchalarni qo‘shib, so‘z birikmalari hosil qiling. So‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

	-ning	ko‘chirdi
	-ga	ketdi
	-ni	nuri
	-da	ishlaydi
	-dan	taqillatdi

89-mashq. Matnni o‘qing va ko‘chiring. So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, ularni tegishlicha belgilang.

Uchrashuv

Maktabimiz... shoirlar... taklif qildik. Ular bilan uchrashuv o‘tkazdik.

Uchrashuv... hamma o‘quvchilar qatnashdi. Shoirlar yangi she’rlar... o‘qib berishdi. Biz ular... rahmat aytdik.

- **Matnni og‘zaki davom ettiring.**

So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalar mavzusini mustahkamlash

90-mashq. Topishmoqlarning javobini toping. So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalarni tegishlicha belgilang.

Olamda-yu odamda bitta,
Odoblida ikkita.

Sochlaringni silaydi,
Ko‘rolmaysan qo‘lini.
Qulog‘ingga shivirlar,
Tushunmaysan so‘zini.

91-mashq. “O‘qish savodxonligi” darsligida berilgan quyidagi matndan gaplarning chegarasini aniqlab, zarur tinish belgisini qo‘ying. So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalarni toping va tagiga chizing.

Deyarli har qish faslida qor tevarak-atrofni qoplaydi biz qorning yog‘ishidan zavqlanamiz maza qilib o‘ynaymiz siz qor parchalari qanday ekanligi haqida o‘ylab ko‘rganmisiz



qor parchalari juda ham ajoyib... bilasizmi, qor nafaqat oq rangda, balki qizil, yashil va hattoki qora rangda ham bo‘lishi mumkin ekan sababi, qor parchalari yerga tushayotganda havodagi mayda bakteriyalar va changni yutgani sababli tusini o‘zgartiradi ammo rangdor qor parchalarini biz faqat mikroskop yordamida ko‘rishimiz mumkin qor parchalar bir-biriga jipslashganda esa ko‘zimizga oq rangda ko‘rinadi.

- **Tasavvur qiling, agar qizil yoki ko‘k qor yog‘sa, qanday holatga tushasiz? Holatingizni og‘zaki bayon qiling.**



So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalar mavzusini mustahkamlash

92-mashq. So‘zlardan birikma hosil qiling va yozing.

Ustaxona	-ning	ko‘zi
Jurnal	-ni	chiqmoq
Suv	-ga	olmoq
Tog‘	-da	solmoq
Mushuk	-dan	ishlamoq

- **Tuzgan birikmalaringiz ishtirokida gaplar tuzing. Bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarni aniqlang.**

93-mashq. Nuqtalar o‘rniga so‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalarni qo‘yib, gaplarni ko‘chirib yozing.

1. To‘g‘ri so‘z tosh... yorar, egri so‘z bosh... . 2. Ota-onang... mehribon bo‘l, ular... izzat-hurmat qil. 3. Yaylov... sigir boqamiz. 4. Shu ora... bir buzoq bola... oldi... kela boshladi. 5. Bolalar qir... maza qilib o‘ynadilar.



94-mashq. O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni tarkibiga ko‘ra tahiil qiling.

Qushlar

Kunlar isib, qushlar turli o‘lkalardan uchib kela boshladi. Qushlar dala va bog‘dagi **zararli hasharotlarni** terib yeydi. Akam **qushlarga** juda mehribon. U in yasadi va daraxt **shoxiga** osib qo‘ydi. Endi qushlar shu **inda** yashaydi.



- **So‘z tarkibini tahlil qilish tartibi:**

1. So‘zning asosini ko‘rsatish;
2. 2 ta asosdosh so‘zlar topish;
3. Qo‘shimchalarini aniqlash:
   a) so‘z yasovchi qo‘shimcha;
   b) so‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimcha.

Namuna. zararli: ***zarar*** *– asos; zararsiz, zararli – asosdosh so‘zlar;* ***-li*** *– so‘z yasovchi qo‘shimcha.*

So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalar mavzusini mustahkamlash

95-mashq. Berilgan so‘zlarni jadvalga joylashtirib, tarkibiga ko‘ra tahlil qiling.

Osmonda, daraxtning, doirachida, son-sanoqsiz, ma’noli, bog‘bonning, sirdoshga, odobsizdan, kulgidan, g‘allakordan, safdosh, go‘zallikning.

So‘z	Asos	So‘z yasovchi qo‘shimcha	So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimcha
osmonda	osmon	–	***-da***

96-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning asosini, so‘z yasovchi va so‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalarini aniqlang. Asos va qo‘shimchalarni tegishlicha belgilang.

1. Kecha **yomg‘irli** kun bo‘ldi. 2. Chumchuqlar **bug‘doyzorga** qo‘ndi. 3. Qish **faslida** kunlar qisqaradi. 4. Yanvar **oyida** qattiq sovuq bo‘ldi. 5. **Qishda** ariq suvlari muzlaydi. 6. Muzlar quyosh **nurida** yarqiraydi. 7. Musicha daraxt **shoxiga** qo‘ndi. 8. Yozda o‘quvchilar **oromgohga** boradilar. 9. Men **akamga** xat yozdim.



97-mashq. Maqollarni eslab qoling va yoddan yozing.

Do‘stsiz boshim – tuzsiz oshim.


Dushman siringni og‘irlar,
Do‘st xatoingni to‘g‘rilar.

Do‘sting bo‘lsa, bog‘ing chamandir,
Do‘sting bo‘lmagani – fe’ling yomondir.

98-mashq. So‘z yasovchi va so‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalarni topib, ularning farqini ayting. Ko‘chiring. Qo‘shimchalarni namunadagidek belgilang.

Namuna: *o‘quvchidan.*

Sayohatchini, qahramondan, bilimsizga, ovchining, hushsiz, ko‘makchini, navbatchiga, g‘allakorning, foydali, oqibatliga, sinfdoshni, yaxshilikdan.



Ijodkorlik. Loyiha ishi

“Men tartibli bolaman!” jadvalini to‘ldiring.

- Nima mumkin-u, nima mumkin emas?
- Juftliklarda muhokama qilib jadvalni to‘ldiring.
- So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalarning tagiga chizing.

T/r	Qayerda?	Mumkin	Mumkin emas
1.	Maktabda		
2.	Maktab koridorida		
3.	Sirkda		
4.	Tabiat qo‘ynida		
5.	Muzeyda		
6.	Sinfda		




98-mashq. “Muzqaymoqni yoqtiraman” topshirig‘ini bajaring.



Muzqaymoq **rasmidagi har bir so‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalarga muzqaymoq so‘zini bog‘lab, gap tuzing.**

Namuna: *Muzqaymoqning mevaligidan sotib oldim.*

100-mashq. Berilgan so‘zlarga so‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalarni ketma-ketlikda qo‘yib chiqing va qisqa matn tuzing.



Testlarni yeching

1. Nutq nimalardan tuziladi?
A) gaplardan
B) so‘zlardan
D) harflardan
E) matnlardan

2. Matn nima?
A) *Kim? Nima?* so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar
B) nutqning yozma shakli
D) tugallangan fikrni anglatuvchi so‘zlar
E) tugallanmagan fikrning ifodasi

3. Tartib bilan berilgan harflar ... deb ataladi.
A) tovushlar
B) harf birikmasi
D) alifbo
E) jarangli va jarangsiz harflar

4. Nuqtalar o‘rniga qaysi harf qo‘yiladi?
Obo...
A) t
B) d
D) harf qo‘yilmaydi
E) tutuq belgisi

5. Darak gap oxiriga qaysi tinish belgisi qo‘yiladi?
A) nuqta
B) so‘roq belgisi
D) undov belgisi
E) hech qanday belgi qo‘yilmaydi

6. Nuqtalar o‘rniga qaysi so‘z qo‘yiladi?
Kuz ... oyidan boshlanadi.
A) sentabr
B) avgust
D) noyabr
E) oktabr

7. Kuchli his-hayajonni bildirgan gap qanday gap deb ataladi?
A) undov gap
B) darak gap
D) so‘roq gap
E) buyruq gap



8. O‘zbek tilida nechta unli harf bor?
A) 10 ta
B) 6 ta
D) 8 ta
E) 5 ta

9. Qaysi so‘zda harf tushib qolgan?
A) tilla
B) yeti
D) achchiq
E) soat

10. 1-oktabr qanday kun?
A) Mustaqillik kuni
B) Hosil bayrami
D) O‘qituvchi va murabbiylar kuni
E) Konstitutsiya kuni



• Matnni husnixat tarzida ko‘chiring. Gapning bosh bo‘laklari tagiga chizing. Matnda qanday tinish belgilar ishlatilganligini ayting.

Muz haykallar

Bolajonlar, muzdan yasalgan haykallar haqida eshitganmisiz? Muz inshootlar, qushlar va hayvonlar haqida-chi? Loy, metall, hatto yog‘ochdan ishlangan haykallarni eshitganmiz, lekin bunaqasini bilmas ekanmiz, deysizmi? Ishonavering! Keyingi paytlarda dunyoda muzdan turli shakllar yasalmoqda. Yaponlar birinchilardan bo‘lib qor haykallar yaratish taklifini bildirgan. Qor tez erigani uchun muzdan haykallar ishlashga kirishishgan.

Muz maxsus shaffoflangan suvlardan qoliplanadi. Ortiqcha joylari arralanadi. Shaffof ko‘rinishga kelguncha havo purkagichda ishlov beriladi. Tungi chiroqlar yog‘dusida haykallar olmosdek tovlanadi. Bugungi kunga kelib, muzdan haykallar yasash musobaqalari o‘tkazilmoqda.



Testlarni yeching

1. Berilgan gapdagi ikkinchi darajali bo‘lakni toping.
Daraxt barglari yerga to‘kildi.
A) yerga
B) to‘kildi
D) daraxt barglari

2. Gapda so‘zlarning bog‘lanishi qanday aniqlanadi?
A) qo‘shimchalarning qo‘llanishiga qarab
B) so‘roqlar yordamida
D) ohangiga qarab

3. Mayin shamol yaproqlarni tebratdi. Gapdagi “mayin” so‘zi qaysi so‘zga bog‘langan?
A) yaproqlarni
B) tebratdi
D) shamol

4. To‘g‘ri javobni tanlang.
Asos – ...
A) so‘zlarni bir-biriga bog‘laydigan, yangi so‘z yasamaydigan qo‘shimcha
B) o‘zakdan anglashilgan ma’no bilan bog‘liq bo‘lgan yangi so‘z hosil qiladi
D) barcha yangi ma’noli so‘zlarning umumiy qismi

5. Asosdosh bo‘lmagan so‘zni belgilang.

A) bilimli
B) billur
D) bilimsiz

6. So‘z yasovchi qo‘shimchalar qatnashgan so‘zlarni belgilang.

A) akamning, bekat
B) vatandosh, rejali
D) buvimga, ishsiz

7. Nuqtalar o‘rniga berilgan qo‘shimchalardan mosini qo‘ying. Hozirgi kunda qog‘oz... 600 dan ortiq turi bor.

A) -dan
B) -li
D) -ning

8. So‘z qismlaridan qaysi biri ishtirok etmasa, so‘z hosil bo‘lmaydi?

A) so‘z yasovchi qo‘shimcha
B) so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimcha
D) asos

9. So‘z yasovchi qo‘shimchalar berilgan qatorni toping.

A) -li, -la, -siz, -kor, -dosh,
B) -la, siz, -dosh, -dan, -ga,
D) -chi, -kor, -da, -ning, -siz.

10. So‘z turkumlarini belgilang.

A) ot, sifat, fe’l, o‘zak
B) ot, sifat, fe’l, son
D) ot, sifat, fe’l, so‘z yasovchi qo‘shimcha

11. Ikkinchi darajali bo‘laklarning so‘roqlarini toping.

A) Qanaqa? Qayerga? Nechanchi?
B) Kim? Nima? Kimlar?
D) Nima qildi? Nima qilyapti?

12. Ikkinchi darajali bo‘laklarning gapdagi vazifasini aniqlang.

A) tugallangan mazmunni bildiradi
B) gapning mazmunini to‘ldiradi
D) ish-harakat kim tomonidan bajarilganini bildiradi

13. Faqat asosdosh bo‘lgan so‘zlarni belgilang.

A) bilimli, bilimdon, bilimsiz
B) kuchsiz, kuchli, kuchuk
D) moy, moyla, mol

14. Yangi so‘zlar yasaydigan qo‘shimchalar qatorini toping.

A) -ning, -ni, -da, -ga, -dan
B) -chi, -li, -kor, -siz, -ning
D) -chi, -li, -la, -kor, -siz, -dosh

15. *Chumolilar bug‘doy... inlariga olib ketishdi.*
Nuqtalar o‘rniga so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalardan mosini qo‘ying.

A) -dan
B) -ni
D) -ning



www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Mundarija:

1-mavzu	Gapning bosh bo'laklari O'tilganlarni mustahkamlash	6
2-mavzu	Gapning bosh bo'laklari	8
3-mavzu	Gapning bosh bo'laklari	11
4-mavzu	Gapda eganing qo'llanilishi	14
5-mavzu	Gapda kesimning qo'llanilishi	17
6-mavzu	Ijodkorlik soati. Loyiha ishi	20
7-mavzu	Gapning ikkinchi darajali bo'laklari	22
8-mavzu	Gapning ikkinchi darajali bo'laklari	28
9-mavzu	Gapning ikkinchi darajali bo'laklarini so'roqlar yordamida aniqlash	31
10-mavzu	Ijodkorlik soati. Loyiha ishi	34
11-mavzu	Gapda so'zlarning bog'lanishi	36
12-mavzu	Gapda so'zlarning bog'lanishi	40
13-mavzu	So'z tarkibi. Asos va asosdosh so'zlar	43
14-mavzu	So'z tarkibi. Asos va asosdosh so'zlar	46
15-mavzu	So'z tarkibi. Asos va asosdosh so'zlar	48
16-mavzu	So'z yasovchi qo'shimchalar	51
17-mavzu	So'z yasovchi qo'shimchalar	56
18-mavzu	So'z yasovchi qo'shimchalar	60
19-mavzu	Ijodkorlik soati. Loyiha ishi	63
20-mavzu	So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar	65
21-mavzu	So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar mavzusini mustahkamlash	68
22-mavzu	So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar mavzusini mustahkamlash	70
23-mavzu	So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar mavzusini mustahkamlash	73
24-mavzu	Ijodkorlik soati. Loyiha ishi	76
25-mavzu	O'tilgan mavzular bo'yicha test va topshiriqlar	78
26-mavzu	O'tilgan mavzular bo'yicha test va topshiriqlar	81

Darslik holati haqida ma'lumot

№	O'quvchining F. I. Sh	O'quv yili	Darslik olingan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslik qaytarib berilgan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1	Abduvaliyeva					
2	Mehlaroy					
3						
4						
5						
6						

Darslikni olish va o'quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to'ldiriladi

Yangi	Darslikning holati a'lo darajada
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko'chmagan
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba'zi sahifalari yirtilgan
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to'liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba'zi sahifalari yo'q, bo'yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas

Baynazarova Dilnoza Jamoliddinovna

Ona tili
3-sinf
II qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

"Novda Edutainment"
Toshkent – 2023

Muharrirlar:	*M. Nishonboyeva, Sh. Muslimova*
Badiiy muharrir	*M. Zaimbetov*
Musahhih	*X. Serobov*
Rassomlar	*E. Salyakhova, M. Azimova*
	L. Zatulovskaya
Kompyuterda sahifalovchi	*R. Gapparov*

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 03.07.2023-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70×100/16. Kegli 14 n/shponli. "Arial" garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Mashinada yengil bo'rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m^2 qog'oz. Shartli b.t. 5,5. Hisob-nashriyot t. 0,8. Adadi 626 981 nusxa. Buyurtma raqami 23-524. "O'zbekiston" NMIUda chop etildi.